



## **MUSIQIY-NAZARIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

**Muallif:** Ikromova Farangiz<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'lifi va san'ati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406820>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bugungi kunda innovatsion texnologiyalarning ta'lif sohasini rivojlantirishda tutgan o'rni. Musiqada ushbu texnologiyalar asosida olib borilayotgan yangicha ijodiy ishlar bundan tashqari interfaol metodlar asosida dars mazmunini boyitish uni yanada samarali tashkil etish haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, texnologiyalar, ta'lif shakli, interfaol metod, globallashuv, kasb, intelektual, yangilik, kreativ, ixtiro.

Hozirgi kunda, yurtimizning har bir jabhasini shu qatori ta'lif sohasini innovatsion texnologiya kabi tushunchalar qamrab olgan. Ushbu texnologiyalar yordamida yosh avlodni dasblab ta'limga so'ngra kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Innovatsion texnologiyalarining asosiy maqsadi ham aynan intelektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxasislarni tayyorlash va talimning yangicha mazmunini yaratish, ilg'or ta'lif texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lif jarayonini shakllantirish asoslarini yaratish, axborot kommunikatsiya vositasi orqali dars o'ta oladigan malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Shu bilan birga, yurtimizda prezidentimiz tomonidan innovatsion texnologiyalarni har bir sohada tatbiq qilish uchun alohida e'tibor qaratib bir qancha qarorlar joriy etildi. Ulardan biri 2024-yil 7-sentyabrdagi "Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish" haqidagi farmonidir. Innovatsiya so'zining tub mohiyati ham yangilik ixtiro ekanligini inobatga oladigan bo'lsak ta'limda har bir dars mavzusiga yangicha yondashish o'quvchida kreativlik qobiliyatini oshirishga hizmat qiladi. Bunda nafaqat o'quvchi balki pedagog ham dars mazmunini samarali tashkil etib ta'lif oluvchilarga bilim berishning an'anaviy usulidan farqli ravishda noodatiy tarzda talim dasturini ishlab chiqadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi orasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Bunday hamkorlik o'ziga xos ijobjiy xususiyatlari mavjud. Bular:

- pedagogning dars tashkil etish mahoratini oshirish
- o'quvchining bilim olishga bo'lgan ishtiyoyqini muntazam oshirish
- har bir murakkab mavzularga ijodiy yondashish;
- o'quvchini dars jarayonida e'tiborini to'la qonli jalb etish kreativ fikrlashiga imkon yaratish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek innovatsion texnologiyalar ta'limning har bir turida o'z aksini ko'satmoqda. Shu qatorda ta'lim texnologiyalarining musiqada ham bugungi kunda o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Musiqa ruh ozuqasi u jonli san'at turi hisoblanib insonlarning ichki kechinmalariga ta'sir o'tkaza oladi. U insonni yuksak did bilan quvvatlantiradi. Shunday ekan maktabda musiqa darslarining o'tkazilishi o'quvchilarni nafaqat ruhan dam olishi balki ularda madaniyatni shakllantirish, jamiyat talabiga mos keluvchi yetuk va barkamol kadr etib tayyorlashdan iboratdir. Musiqiy-nazariy fanlarni zamon talablari darajasiga olib chiqish, ta'lim sohasiga ilg'or musiqiy texnologiyalarni joriy etish, jamiyat hayotida musiqiy ta'limning o'rni ahamiyatini oshirish dolzarb muommolardan biriga aylangan. Musiqiy nazariy fanlarda talim texnologiyalarni keng yo'lga qo'yilishi pedagoglarning bilimli va yetuk mutaxasis bo'lishlarini ta'minlaydi. Maktabda musiqa darslarining innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan o'tkazilishi quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich sinflarda o'qishga ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini ortishi
- ta'lim texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning diqqat e'tiborini jalb qilish, ularni musiqiy savodini chiqarish, dars mashg'ulotini yanada samarali hamda qiziqarli o'tishini ta'minlash
- interaktiv metodlarni qo'llagan holda o'quvchilarning madaniy ongini shakllantirish ularda ota-onasiga, kattalarga hurmat kichiklarga izzat, kabi insoniy tuyg'ularni shakllantirishga erishish

Zamonaviy ta'lim shaklida innovatsion texnologiyalarga bo'lgan talab ortib borayotganligini hisobga olsak, musiqada ham zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilim beruvchi pedagog va o'quvchilarni kreativ bo'lishini talab qiladi. Bugungi kunda musiqiy ta'lim sifatiga qaratilayotgan e'tibor musiqa o'qituvchilarini ko'proq ishlashga, yangidan yangi bilimlarni o'rganishga va texnologiyalardan foydalanishga undamoqda. Chunki ushbu globallashuv zamonida har bir sohada bo'lgani kabi musiqada ham innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish yuqorida keltirilganidek o'quvchining kengroq fikrlashi, uning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, darslarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga yordam beradi. Bulardan aynan musiqiy nazariy fanlar hisoblangan solfedjio, nazariya, garmoniya kabi musiqaning murakkab fanlarida iloji boricha ko'proq ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiqli. Yangicha innovatsion texnologiyalar ushbu nazariy fanlarni yanada qiziqarli, bundan tashqari o'quvchining nazariy bilimlarini boyishiga hizmat qiladi. Aynan shuning uchun ham innovatsion texnologiyalar bugungi kunda har bir soha uchun muhim ahamiyat kasb etyapti. Zero ushbu interfaol metodlar yordamida har qanday murakkab bo'lgan darsliklar o'quvchi uchun qiziqarli, o'zlashtirilishi esa osondir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'RQ-630-sonli qarori, 2020-yil 24-iyul.

Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. Toshkent, 2007.

Xasanova N. Musiqa fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarining ta'limda samaradorligi.

Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2000 y.

Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.